

MUSIQIY TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI

Maryam Mirzaeva,
A.Qodiriy nomidagi JDPI
Musiqqa madaniyati fakulteti
Musiqiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Yoshlar ta'lim va tarbiyasida san'atning musiqiy ta'lim tarbiyaning o'rni haqida, musiqaning katta kuch va inson ongiga ta'siri haqida ma'naviy qadriyatlarimizni yoshlar tarbiyasiga muhimligi to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: G'arb ilmi, adabiyot, afsona, rivoyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, kamtarlik, oliyjanoblik, yuksak madaniyat.

Musiqqa jonsiz tanaga jon, ruhsiz vujudga ruh bag'ishlagani haqida Sharq G'arb ilmi, adabiyotda farazlar, afsonayu rivoyatlar juda ko'p. Aksariyat mutaxassislar musiqaning yaratilishi inson zoti paydo bo'lib, tabiat hodisalariga, hayvonlarga taqlidan, yo ilk bor kulib yoki yig'laganda chiqargan un-tovushlarga bog'lab izohlaydilar.

Sharq allomalari asarlarida sog'lom va barkamol avlod tarbiyasi masalalari muhim o'rin egallagan. Sharq falsafasining asosini komillikka erishish shartlaridan biri bo'lgan-yoshlar tarbiyasi tashkil etadi. Umuminsoniy qadriyatlarning barchasi ibratli rivoyatlar yoshlar ongiga yetkazilsa, ularning ma'naviy tomondan barkamol bo'lib voyaga yetishishlarida muhim vazifani o'taydi. Ajib tuyg'ular va hissiy kechinmalar olami bo'lmish-musiqqa san'ati ham yoshlar madaniyatini shakllantirishda katta kuchga ega. Musiqiy ta'lim-tarbiya qancha ilgari boshlansa shuncha maqsadga muvofiqligi hammaga ayon. Shuning uchun ham ajdodlarimiz bu tarbiya ona allasidan boshlanadi deb bejiz aytmaganlar.

O'rta va Oliy o'quv maskanlaridagi tajribalar, bugungi kun talablari kundalik ishimizga muhim muammoni o'rta qo'ymoqda. U ham bo'lsa, jamiyatimizning kelajagi bo'lgan yoshlarni kasbga o'rgatish bilan bir qatorda

ularni vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, kamtarlik, oliyjanoblik, yuksak madaniyatli mutaxassislar qilib tarbiyalashdir. Bu muammoni hal etishda talabalarni, xalqimiz kechmishining tarixiga aylangan ajoyib dostonlar, kuy qo'shiqlar, xalq og'zaki ijodiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirib, o'rgatib borish har bir ustoz-tarbiyachidan talab etiladi. Bu borada musiqa yosh avlodga shodlik va ilhom baxsh etishi, ularning tafakkur va hissiyotini rivojlantirishga ko'maklashishi, g'oyaviy, badiiy va ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'siri haqida talabalar bilan suhbatlar uyushtirish baxs va munozara tashkil etish katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim.

Asl kuy qo'shiqning vatani ko'ngildir, chunki musiqani anglash uchun til bilish shart emas. Lekin soz chalish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Zehni o'tkir, tirishqoq, aniq maqsadli yoshlarning biror soz chalishni o'rganishlari oson kechadi.

Yoshlarning iste'dodini rivojlantirish, ularga ko'mak berish maqsadida Respublikamizda turli tadbirlar-tanlovlar, festivallar, ko'rik tanlovlar uyushtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Xalqaro musiqiy festivallarning o'tkazilishi ham yoshlar bilimni, dunyoqarashini kengaytirish, jaxon musiqa durdonalari, ijrochilik maktablari bilan tanishtirish, ijodkorlik, bunyodkorlik tomon yo'naltirishga qaratilgan. Yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni rag'batlantirish maqsadida "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi tomonidan o'tkazilayotgan ko'plab qiziqarli tadbirlar ham mamlakatimiz madaniy hayotida o'ziga xos ahamiyatga ega. Yoshlar tarbiyasida muhim o'rin egallaydigan muammolardan yana biri-qanday kuy qo'shiqlar tinglashlari, bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazishlari muammosidir. Bu borada ko'pgina olimlar izlanishlar olib borishmoqdalar, shulardan biri (AQSh) Pitsburg universiteti tibbiyot professori Brayan Primak tadqiqoti kishini xavotirga soladi. Uning fikricha "Agarda bolalar rok, rep yoki ommabob qo'shiqlarni ma'qul ko'rsa, ularda giyohvandlik moddalari va spirtli ichimliklarni qabul qilish kabi salbiy illatlar ko'payadi", degan fikrni bildiradi. Bunday holatlar bizning respublikamizda

yo‘q, lekin ogoh bo‘lish, chet eldan kelayotgan “Ommaviy madaniyatga” to‘g‘ri baho berish, mazmun, mohiyatini anglash talab etiladi.

Yaqinda televidenie orqali suvning xossasi va xislatlarini, xususiyatlariga oid ilmiy tadqiqotlarga asoslangan hujjatli film namoyish etildi. Unda mayin, sokin, yorug‘ kayfiyat beruvchi musiqiy ohanglar bilan shovqin yo bug‘iq tovushda ijro etilgan kuylarni bir xil idishdagi, bir joydan olingan, bir xil miqdordagi suvga ta’siri ko‘rsatildi. Mazkur tajribaga ko‘ra, mayin, yoqimli ohanglarni eshitgan suv kristallari gulsimon go‘zal birikma hosil qilgan bo‘lsa, ikkinchisi shovqin va badbin ohanglardan qorayib, bujmayib, juda xunik manzara kasb etdi. Qarangki, hatto suvha shunchalik ta’sir ko‘rsatgan musiqa, tanasining asosiy qismi suvdan iborat bo‘lgan insonga, xususan, uning tarbiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatar ekan. Davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan ta’lim tarbiyaning eng ta’sirli vositalaridan biri bo‘lmish musiqa san’atiga jiddiy e’tibor berilmoqda. Musiqiy ta’lim-tarbiya tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Hukumatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev 2022 yilning 2-fevralida PQ 112-sonli “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Keyingi besh yilda ilk marotaba o‘tkazilgan xalqaro festivallar, madaniyat va san’at maskanlarining barpo etilishi, beshta muhim tashabbusning amalga oshirilishi, yangi iste’dodlarning kashf etilishi, xalqaro miqyosdagi tanlov va festivallardagi ishtiroklarning yo‘lga qo‘yilishi buning yorqin dalilidir.

Joriy yilning 2-fevral sanasida qabul qilingan Prezident qarori esa amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqishi shubhasiz. Mazkur qarorga muvofiq uzoq hududlar ham sifatli madaniy xizmat bilan qamrab olinadi. Madaniyat markazlari, teatrlarning moddiy texnik bazasi mustahkamlanadi. Ta’lim maskanlarida musiqa asboblari chalish orqali yosh avlodning san’atga oshno bo‘lib o‘sishi ta’minlanadi. Yoshlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda festivallar, konsert tomosha tadbirlari tashkil etilib, g‘oliblar taqdirlanadi. Sohada samarali mehnat qilayotgan xodimlarga uy-joy xarid qilish uchun subsidiyalar beriladi.

Bir soʻz bilan aytganda ushbu qaror va unda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi madaniyat va sanʼat sohasidagina emas, xalqimiz ayniqsa, oʻsib kelayotgan yosh avlod hayotida olamshumul yangilik boʻldi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, yurtimizning benazir aqliy va madaniy salohiyati-buyuk ajdodlarimiz tomonidan yoqib ketilgan tafakkur mashʼallari bugun ham yangi kuch va qudrat bilan porlamoqda. Oʻtmish maʼnaviy qadriyatlarimizni tiklagan istiqlol davri barcha sohalarning istedodlari kamol topishida oʻzini namoyon etish uchun katta imkoniyat yaratmoqda. Yoshlar tarbiyasida muhim oʻrin tutgan musiqiy tarbiyaga jiddiy eʼtibor qaratish, ularga repertuar tanlash, oʻzlashtirish, ijro qilish, tagʻibot ishlarida amaliy yordam berish har birimizning birlamchi vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. I.A.Karimov “Yuksan maʼnaviyat-yengilmas kuch” – TOSHKENT, “Maʼnaviyat” .2008.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2-fevraldagi PQ-112-sonli qarori
3. M.Toirov “Maʼnaviyat- qalb chirogʻi toʻplam; maʼnaviy yuksalish yoʻlida” TOSHKENT “Maʼnaviyat” 2008.
4. G.Sharipova “Musiqqa va uni oʻqitish metodikasi”. TOSHKENT 2006.